Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ismatovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	



Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	



XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR, ULARDA HISOBDO RLK VA BOSHQARUVDA AXBOROTLARNING TAHLILIY LIGINI OSHIRISH MASALALARI



Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li

“Agrobank” ATB Yakkabog' filiali boshqaruvchi o'rinbosari

Annotatsiya: Mazkur maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarning rivojlanishidagi dinamik o'zgarishlar, ularda buxgalteriya xizmatlarini tashkil etishning muhim jihatlari va boshqaruvda axborotlarning tahliliy darajasini oshirishga doir dolzarb masalalar yoritilgan. Tadqiqotda hisobdorlikning sifatli yuritilishi, moliyaviy hisobotlarning mazmungan boyitilishi va qaror qabul qilishda analitik axborotlardan foydalanish samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, buxgalteriya axborotining standartlar asosida shakllanishi va barqaror boshqaruvni ta'minlashdagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: hisob, hisobdorlik, moliyaviy hisobot, tushuntirishlar, moliyaviy holat, moliyaviy natija, barqarorlik, standartlar.

Abstract: This article examines the dynamic development of economic entities, essential aspects of organizing accounting services, and critical issues related to enhancing the analytical quality of information in management. The study focuses on the effectiveness of accurate accounting practices, the content quality of financial reporting, and the role of analytical data in decision-making. Additionally, the paper highlights the importance of forming accounting information based on international standards and its contribution to sustainable management.

Key words: accounting, reporting, financial statements, disclosures, financial position, financial performance, sustainability, standards.

Аннотация: В статье рассматриваются динамические изменения хозяйствующих субъектов, ключевые аспекты организации бухгалтерской службы и проблемные вопросы повышения аналитического уровня информации в управлении. В исследовании акцент сделан на качестве ведения учёта, содержательности финансовой отчётности и эффективности использования аналитической информации при принятии управленческих решений. Особое внимание уделено формированию бухгалтерской информации на основе стандартов и её роли в обеспечении устойчивого управления.

Ключевые слова: учёт, отчётность, финансовая отчётность, пояснения, финансовое состояние, финансовый результат, устойчивость, стандарты.

KIRISH

Tadbirkorlik faoliyatida hisobdorlikning muhim tamoyillarini belgilab bergan ilk asarning yaratilganiga ham endi besh asrdan oshdi. O'tgan davr mobaynida hisobdorlikning umumiy qoidalari va tamoyillari asosan o'zgarishsiz qolgan bo'lsa-da, uning shakli, texnikasi va texnologiyasi keskin rivojlandi. Bugungi kunda hisobdorlik nafaqat tadbirkorlik faoliyatining “raqamli oynasi”, balki biznesning universal muloqot vositasiga aylangan. Hisob va hisobdorlikni raqamlashtirishsiz tasavvur qilish qiyin. Soha mazmungan tubdan o'zgarib, jahon miqyosida yagona qoidalar, tamoyillar va standartlar asosida standartlashtirish amaliyoti keng joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma, boshqaruv tizimi va tashkiliy mexanizmlardagi farqlar, shuningdek, mulkiy va moliyaviy munosabatlardagi xususiyatlar hisobdorlik tizimida ham ayrim milliy



yondashuvlarni zaruratga aylantirmoqda. Xalqaro miqyosda biznes muloqotining muhim vositasi bo'lgan buxgalteriya hisobining shakliyl farqlari uning mazmuniga qanday ta'sir ko'rsatayotganini baholash esa murakkab va bahsli masalalardan biridir.

Mazkur maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya xizmatlarini tashkil etishining o'ziga xos jihatlari, ularning faoliyati samaradorligi hamda boshqaruvda axborotning tahliliy darajasini oshirishga doir mavjud muammolar ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligi bo'yicha chop etilgan adabiyotlar hamda olib borilgan tadqiqotlarni o'rganish asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin: hisobdorlik turli davlatlar, tizimlar va sohalar kesimida o'ziga xos jihatlari bilan farqlanishi kuzatiladi [1].

Hisobdorlik sohasidagi eng dolzarb muammolardan biri – korxona va tashkilotlarda buxgalteriya hisobini tashkil etish va uni yo'lga qo'yish tartiblari har xil bo'lishidir [2].

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar soni, ularning tarkibi, hajmi va yuridik maqomidagi o'zgarishlar ham buxgalteriya xizmati, nazorat va tahlil faoliyatining shakli va mazmuniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda [9].

Axborot oqimini shakllantirish, raqamli dasturlardan foydalanish, texnologiyalarni takomillashtirish hamda rasmiy platformalarni yaratish borasidagi sa'y-harakatlar hisobdorlik va analitik ishlar mazmunida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda [4].

Buxgalteriya xizmatini yo'lga qo'yish, nazoratni amalga oshirish, iqtisodiy va moliyaviy tahlilni olib borish buxgalteriya bo'limi va tahlil xodimlarining klassik ish mazmunini tubdan o'zgartirishni talab qilmoqda [5].

Klassik ish mazmunidagi eng katta kamchilik – axborotlarni tadbirkorlik subyekti boshqaruvi uchun emas, balki davlat organlari va yuqori turuvchi tashkilotlarga majburiy va tartiblangan shaklda mexanik ravishda taqdim etishga asoslangan tizimning saqlanib qolganidir. Mazkur yondashuvdan voz kechish zarur [6].

Zamonaviy buxgalteriya, zamonaviy iqtisodiy tahlil, zamonaviy nazorat va boshqaruv tushunchalariga mos ish mazmunini shakllantirishda konseptual asoslar, normativ hujjatlar, talab va qoidalarni aniq belgilash, shuningdek, korxona va tashkilotlar boshqaruvida sifat menejmenti tamoyillariga o'tish muhim masala hisoblanadi [9–10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyati bo'yicha hisobdorligidagi muhim tamoyillar, shuningdek, ular bilan manfaatdor bo'lgan keng doiradagi foydalanuvchilarning joriy va istiqboldagi qaror qabul qilish jarayonida axborotlardan foydalanish holatlari o'rganildi. Bunda ma'lumotlarni tahlil qilishda klassik usullar (qiyosiy tahlil, farqlash, indekslar, omilli tahlil), hamda maxsus usullar (trendlarga asoslangan, gorizontaal va vertikal tahlil) qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hisobdorlik mikro darajadagi ko'rsatkichlarni makro darajada umumlashtirishga xizmat qiladi hamda bu orqali tarmoqlar, sohalar va umuman mamlakat rivojlanishi va taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini o'rganishga imkon beradi. Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining turli sohalarida ro'yxatga olingan va faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlari soni, ularning tarkibiy o'zgarishlari va dinamikasi quyidagi jadval ma'lumotlarida o'z aksini topgan.

2020–2025-yillar davomida O'zbekistonda ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar soni keskin oshgan bo'lib, 2020-yildagi 419 490 tadan 2025-yilda 725 857 taga yetgan. Bu esa, 6 yilda qariyb 73% o'sishni tashkil etadi. Xuddi shu davrda faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 398 133 tadan 424 840 taga tushib, real faoliyat ko'rsatkichlarida pasayish kuzatilgan.

Xuddi shunday, ro'yxatga olingan kichik tadbirkorlik subyektlari soni ham ortib, 2020-yildagi 353 921 tadan 2025-yilda 651 807 taga yetgan. Biroq ulardan faoliyat yuritayotgan subyektlar soni 2023-yildan keyin keskin kamaygan: 2023-yilda 523 556 ta bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 358 116 taga tushgan.

Bu holat, bir tomondan, ro'yxatga olish jarayonlarining faollashgani va subyektlar bazasining kengayib borayotganini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan esa iqtisodiy muhit, soliq yukining o'zgaruvchanligi, infratuzilma imkoniyatlari va boshqaruv tizimidagi ayrim omillar faoliyat yuritayotgan subyektlar sonining barqarorligini ta'minlash zarurligini ko'rsatmoqda. Ushbu jarayonlar hisobdorlik axborotlaridan yanada samarali foydalanish, strategik rejalashtirishni takomillashtirish va boshqaruv qarorlarini asoslashda axborotlarni chuqur tahlil qilish muhimligini ta'kidlaydi (1-jadval).



1-jadval. Ro'yxatga olingan va faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risidagi ma'lumotlarning qiyosiy tahlili.

Ko'rsatkichlar	Yillar					
	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar	419490	503538	557756	627475	688345	725857
Shundan faoliyat yuritayotganlari	398133	475197	528929	592371	485024	424840
Ro'yxatdan o'tgan Kichik tadbirkorlik subyektlari	353921	436981	488936	555971	614897	651807
Shundan faoliyat yuritayotganlari	334767	411203	462834	523556	417080	358116

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, respublika bo'yicha ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlari soni 725 857 tani tashkil etgan. Ulardan faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni esa 424 840 taga teng. Demak, ularning o'rtasidagi farq 301 017 tani tashkil qiladi. Bu esa shuni anglatadiki, ro'yxatga olingan subyektlarning faqat 41 foizi amalda faoliyat yuritmoqda. Qolgan 59 foiz subyektlar esa ro'yxatda mavjud bo'lsa-da, real iqtisodiy muomalada ishtirok etmayapti. Faol korxonalarning asosiy qismi xizmatlar sohasi hamda qurilish sektorida to'plangan.

Ushbu holat iqtisodiy statistikani yanada aniqlashtirish va faoliyat yuritayotgan korxonalarni aniq identifikatsiya qilish zaruratini ko'rsatadi. Bu esa davlat siyosati, rejalashtirish va resurs taqsimotini yanada maqsadli va samarali yo'naltirish imkonini beradi. Ayniqsa, real faoliyat yuritayotgan subyektlarga soliq, byudjet va investitsion yuklamalarni adolatli taqsimlash orqali ularning rivojlanishiga yanada qulay sharoit yaratish mumkin.

Shuningdek, 2025-yil holatiga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari soni 651 807 tani tashkil etgan bo'lib, ulardan faqat 358 116 tasi faoliyat yuritmoqda. Bu esa kichik tadbirkorlarning faqat 45 foizi faol ekani, 55 foizi esa faoliyat yuritmayotganini anglatadi. Tabiiyki, bu holat 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi¹ va boshqa davlat dasturlarida belgilangan yuqori maqsadlarga erishishda real to'siqlar keltirib chiqaradi. Oqibatda faoliyat yuritayotgan nisbatan kam sonli korxona va tashkilotlar zimmasiga ortiqcha yuklamalar tushmoqda.

Agar zaruriy choralar ko'rilmasa, bu korxonalarga nisbatan iqtisodiy bosim yanada ortishi mumkin, bu esa kelajakda iqtisodiy faollik pasayishiga va tanglik holatlariga sabab bo'lishi ehtimolini kuchaytiradi.

Mazkur raqamlar ortida biz tadqiq qilayotgan buxgalteriya xizmati subyekti haqida ham asosli fikr yuritish mumkin. Bu xizmat subyektlarining soni, faolligi va tizimdagi holati — ularga bo'lgan talabni emas, balki butun tadbirkorlik sektoridagi real vaziyat va istiqboldagi prognozlarni shakllantirish uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

Hisobdorlikdagi eng dolzarb muammo esa shundaki, bu faqat iqtisodiy ko'rsatkichlarda emas, balki ushbu korxona va tashkilotlarda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi va yuritilishida ham aks etmoqda. Aksariyat holatlarda hisobdorlik oddiy, sodda va avtomatlashtirilmagan shaklda yuritiladi. Shu bois nafaqat xalqaro buxgalteriya standartlariga, balki hatto milliy buxgalteriya standartlariga mos holda yuritish ham ayrim subyektlar uchun og'irlik qiladi.

Shunday ekan, buxgalteriya tizimini rivojlantirishda faqat hisob siyosatini yaratish emas, balki uni real iqtisodiy faoliyat bilan muvofiqlashtirish, subyektlarning imkoniyatlariga moslashtirilgan, raqamli va analitik yechimlarga asoslangan modelni ishlab chiqish zarur.

2020–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmida barqaror o'sish kuzatildi. Agar 2020-yilda YAIM 668,0 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 1454,6 trln so'mga yetib, qariyb 2,2 barobarga oshgan. Biroq shu davrda faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni keskin kamaygan: 2022-yilda 592 371 taga yetgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 424 840 taga tushgan, ya'ni qariyb 29% ga kamaygan.

Natijada, bitta korxonaga to'g'ri keladigan YAIM hajmi 2020-yildagi 1,4 mlrd so'mdan 2024-yilda 3,4 mlrd so'mgacha oshgan. Bu iqtisodiy yuklamaning faqat faol korxonalarga zimmasiga tushayotganini anglatadi va yuklamaning nisbiy og'irligini ko'rsatadi.

Shuningdek, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM hajmi 2020-yildagi 19,3 mln so'mdan 2024-yilda 38,7 mln so'mga yetgan. Bu ijobiy ko'rsatkich iqtisodiyotda o'sish va nisbatan yuqori samaradorlikni aks ettiradi.

Ammo faoliyat yuritayotgan korxonalar sonining qisqarishi ushbu o'sish sur'atlarining barqarorligini xavf ostiga qo'yadi. Bu esa iqtisodiy faol subyektlarni qo'llab-quvvatlash, yangi korxonalarni ishga tushirish va mavjudlarini faoliyatda saqlab qolish uchun tizimli choralarni talab etadi (2-jadval).

1 <https://president.uz/oz/lists/view/4132>



2-jadval. Korxonalarga tushadigan yuklama tahlili.

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Yalpi ichki mahsulot hajmi, trln so'm	668.038	820.536	995.573	1204.485	1454.574
Faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni	475.197	528.929	592.371	485.024	424.840
Respublika aholi soni, mln. kishi	34.558	35.271	36.024	36.799	37.543
Bitta korxonaga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi, mlrd. so'm	1.405	1.551	1.680	2.483	3.423
Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot, mln so'm	19.329	23.263	27.636	32.718	38.726

Bir korxonaga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmining dinamikasida yillar kesimida izchil o'sish kuzatilmoqda. Shuningdek, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM hajmida ham ijobiy o'sish tendensiyasi qayd etilmoqda. Bu esa iqtisodiyotning umumiy samaradorligi oshayotganidan dalolat beradi.

Biroq masalaning boshqa, nisbatan nozik jihatiga ham e'tibor qaratish lozim. Ya'ni, agar bu yuklamani faqat ro'yxatga olingan korxonalar soniga nisbatan hisoblasak, YAIM bo'yicha tushadigan yuklama kamroq ko'rinadi. Biroq amalda faoliyat yuritmayotgan korxonalarning katta ulushi mavjudligi hisobga olinsa, real faol korxonalarga to'g'ri keladigan YAIM hajmi va yuklama miqdori ancha yuqori bo'lib chiqadi. Bu esa iqtisodiy yuklamaning notekis taqsimlanishiga olib keladi.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda buxgalteriya xizmati subyektlarining yangidan tashkil etilishi nisbatan barqaror holatga o'tayotgani kuzatilmoqda. Bu holat iqtisodiyotni formal va tizimli hisob yuritish institutlari bilan yanada mustahkamlash imkoniyatini taqdim etadi. Bunda yangi tashkil etilgan korxonalarning faoliyatga to'liq integratsiyalashuvi, shuningdek soliq, moliyaviy va normativ talablarga moslashuvi uchun qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, yalpi iqtisodiy ko'rsatkichlarda ijobiy o'sish kuzatilayotgan bir paytda, korxonalar faoliyatining sifat jihatlarini, xususan buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish va iqtisodiy yuklamaning muvozanatli taqsimlanishini ta'minlash orqali yanada yuqori samaradorlikka erishish imkoniyati mavjud.

2020–2024-yillar davomida yangidan tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonida sezilarli darajada pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. 2020-yilda bu ko'rsatkich 93 214 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda atigi 77 046 taga tushgan. Ya'ni besh yil ichida 16 168 ta yoki 17,3% ga kamayish kuzatilgan.

Ushbu pasayish holati iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va yangi biznes tashabbuslarini rag'batlantirishga qaratilgan davlat siyosatiga qaramay, muayyan to'siqlar va xavotirlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Jumladan, soliq yukining og'irligi, tartibga soluvchi mexanizmlarning murakkabligi, moliyaviy resurslarga cheklangan kirish yoki bozordagi noaniqliklar yangi subyektlarning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bois, yangidan tashkil etilayotgan korxonalar sonini barqaror oshirish uchun institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, ro'yxatdan o'tish jarayonlarini soddalashtirish, boshlang'ich kapitalga kirishni osonlashtirish va innovatsion qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi (3-jadval).

3-jadval. Yangidan tashkil etilgan korxona va tashkilotlar dinamikasi.

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Yangidan tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni	93214	98886	90177	86030	77046

2024-yil yakuniga ko'ra, respublika bo'yicha atigi 77 046 ta korxona yangidan tashkil etilgan. Biroq shu bilan birga o'z faoliyatini joriy davrda to'xtatgan korxonalar sonini hisobga oladigan bo'lsak, ro'yxatdagi umumiy o'zgarishlarda ijobiy tendensiya kuzatilmayapti.

Faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy hisobotlari asosida ularning aktivlar hajmi, kapital va majburiyatlar darajasi, faoliyat samaradorligi, pul oqimlari va istiqboldagi prognozlarini baholash imkoniyati mavjud bo'lib, bu sohadagi ochiqlik va shaffoflikni oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, davlat ulushi mavjud bo'lgan, strategik yoki monopol xarakterga ega korxonalar moliyaviy hisobotlarini kengroq e'lon qilish orqali ularni erkin tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirish ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.



O'zbekiston Respublikasi "Istiqlolli loyihalar milliy agentligi"ning Korporativ axborot yagona portalida atigi 668 ta aksiyadorlik jamiyati va 34 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatning 1 200 dan ortiq ochiq ma'lumotlar bazasi mavjud. Afsuski, ularning aksariyatida so'nggi yillarga oid moliyaviy hisobotlarni topish mushkul, ayrim holatlarda esa umuman mavjud emas.

Moliyaviy hisobotlarning axborotga boyligi va tahliliy darajasi bugungi kunda munozarali mavzu bo'lib qolmoqda. Hisobotlardagi ma'lumotlar asosida davlat organlari yoki ekspert guruhlarining tahlillari jamoatchilikka ochiq e'lon qilinmaydi, ommaviy nashrlarda va internet sahifalarida mavjud axborotlar hajmi nihoyatda cheklangan.

Shuningdek, oshkor qilinayotgan ma'lumotlarning to'g'riligi va ishonchiligi uchun javobgarlik darajasi ham to'liq anglanmagan holda olib borilmoqda. Bu borada belgilangan majburiyatlarni monitoring qilish, nazorat qilish mexanizmlarida ham jiddiy kamchiliklar mavjud.

Faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar tomonidan turli davlat organlariga (Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi, banklar, yuqori turuvchi tashkilotlar) taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarning tahlil etilish amaliyoti ham hozircha qoniqarli emas.

Shuni ta'kidlash lozimki, tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini e'lon qilish amaliyoti yo'lga qo'yilganiga bir yildan oshgan bo'lsa-da, amaliyotda korxonalarni mazkur reytingga to'liq qamrab olish darajasi hali ham past.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-39-sonli² qarori qabul qilingan. Mazkur qaror asosida tadbirkorlik subyektlari quyidagi toifalarga ajratiladi:

- AAA, AA, A – yuqori barqarorlik darajasi;
- BBB, BB, B – o'rtacha barqarorlik darajasi;
- CCC, CC, C – qoniqarli barqarorlik darajasi;
- D – quyi barqarorlik darajasi.

Reytinglar Soliq qo'mitasining "Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi" elektron platformasida idoralararo axborot almashinuvi asosida avtomatik tarzda (onlayn) shakllantiriladi va Savdo-sanoat palatasining rasmiy veb-saytida e'lon qilib boriladi.

Reytingda yuqori ko'rsatkichga ega xo'jalik subyektlariga soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi, shuningdek ular uchun bir qator rag'batlantiruvchi choralar belgilangan.

Afsuski, amalda ushbu tartiblarning qamrovi, ko'lami va ta'siri bo'yicha tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Axborotlarning tahliliyligi esa faqat birgina moliyaviy hisobot bilan cheklanmasligi kerak. U investitsion loyihalar samaradorligini baholash, joriy va istiqboldagi rejalarni asoslash, shuningdek real iqtisodiy faollikni barqaror prognozlash uchun ham keng qamrovli va tizimli tarzda shakllantirilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisobdorligi va boshqaruvda axborotlarning tahliliy darajasini oshirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

Rasmiy tarzda tuziladigan moliyaviy hisobotlar va ularni taqdim etishda tushuntirish qismlarida analitik xulosalar va tahliliy amallar yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Bu holat xo'jalik yurituvchi subyektlarning real moliyaviy holati, natijalari, naqd aktivlari va istiqboldagi prognozlari yuzasidan manfaatdor tomonlarga asosli qarorlar qabul qilishda zarur axborot olish imkoniyatini sezilarli darajada cheklaydi. Natijada mavjud axborot holatini qoniqarsiz deb baholash mumkin.

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga o'tishini rag'batlantirishda operatsion, moliyaviy, investitsion va innovatsion jarayonlarni jadallashtirishga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlar yetarli darajada samarali ishlamayapti. Bu boradagi xarajatlarning oqilona asoslanganligi va barqaror rivojlanishga ta'siri sezilarli emas.

Hisobdorlikda xo'jalik yurituvchi subyektlarning muhim samaradorlik ko'rsatkichlari, barqarorlik reytingi va boshqa tahliliy indikatorlar bo'yicha axborot imkoniyatlarini kengaytirish uchun raqamlashtirish jarayonini tezlashtirish, ma'lumot va axborot almashinuvida integratsion tizimlarni joriy etish zarur.

Axborotlarning tahliliy darajasini oshirish bilan bir qatorda tahlilning metodologik asoslarini ham tubdan takomillashtirish lozim. An'anaviy (klassik) tahlil shakllaridan tashqari, zamonaviy va ilg'or xalqaro tahlil usullari va yondashuvlarini qo'llash tavsiya etiladi.

Hisobdorlik va boshqaruvda axborotlardan foydalanishda e'tiborni faqat retrospektiv (o'tgan davr) natijalarga emas, balki istiqboldagi prognoz va kutilyotgan ko'rsatkichlarni asosli va aniq ifodalovchi tahlil amaliyotiga qaratish lozim.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-39-sonli: <https://lex.uz/uz/docs/-6773342>

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ilysheva N.N., Kuptsova M.O. Buxgalteriya (moliyaviy) hisobot: ishonchlilikni ta'minlash muammolari va uni soxtalashtirish holatlariga qarshi kurash usullari // *Ekonomika i upravlenie: problemy, resheniya*. – 2018. – T. 2. – № 2. – S. 86–91.
2. Bogatyrev S.Yu. Tashkilotlar hisobotini tahlil qilishning yangi modellari // *Mezhdunarodnyy buxgalterskiy uchët*. – 2018. – T. 21. – № 2. – S. 124–137.
3. Savitskaya G.V., Valyushko E.L. Buxgalteriya hisobotining axborot resursini oshirish // *Buxgalterskiy uchët i analiz*. – 2014. – № 3 (207). – S. 39–43.
4. Kemaeva S.A., Kozlova E.E., Ionova E.S. Kichik biznes tashkilotlarining kreditga layoqatligini baholashda axborot-analitik ta'minot // *Ekonomicheskij analiz: teoriya i praktika*. – 2014. – T. 13. – № 7 (358).
5. I.T. Abdukarimov. Tijorat tashkilotlarining xo'jalik faoliyatini moliyaviy-iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma / I.T. Abdukarimov, M.V. Beshpalov. – M.: INFRA-M, 2023. – 320 s.
6. M.Q. Pardaev va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. – T.: Chulpon, 2012. – 490 b.
7. M.Q. Pardaev, B.I. Isroilov. Iqtisodiy tahlil. – T.: Iqtisod va huquq dunyosi, 2011. – 452 b.
8. M.Q. Pardaev, J.I. Isroilov, B.I. Isroilov. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. – T.: Print Line Group, 2017. – 533 b.
9. M.Yu. Raximov. Iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy holatini tahlil qilish. – T.: Iqtisod-moliya, 2015. – 356 b.
10. M.Yu. Raximov, N.N. Kalandarova. Moliyaviy tahlil. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2019. – 750 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
